

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOZARBOYEVA NAMUNAXON DAVRONBEK QIZI

**OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TOLERANTLIKNING
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISI FAOLIYATIGA TA’SIRINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Ssienses**

Bozarboyeva Namunaxon Davronbek qizi

Oilaviy munosabatlardagi tolerantlikning davlat fuqarolik xizmatchisi
faoliyatiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 3

Бозарбоева Намунахон Давронбек кизи

Социально-психологические особенности влияния толерантности в
семейных отношениях на деятельность государственного гражданского
служащего23

Bozarboeva Namunakhon Davronbek kizi

Socio-psychological features of the influence of tolerance in family relations
on the activities of a civil servant45

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOZARBOYEVA NAMUNAXON DAVRONBEK QIZI

**OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TOLERANTLIKNING
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISI FAOLIYATIGA TA’SIRINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P1254 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Navbahor Shokirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ruziyev Axror Evatovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktri (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD 03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» ____ kuni soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-80-86; faks: (+99871) 276-76-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktri professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatida davlat xizmatining insonparvarlikka asoslangan zamonaviy modeli tobora ko‘proq e‘tibor markaziga aylanib borayotgan bir sharoitda, shaxslararo munosabatlarda tolerantlikni shakllantirish strategik psixologik omil sifatida qaralmoqda. Zero, davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy guruhlar bilan samarali, madaniyatlararo va barqaror muloqot o‘rnatish qobiliyati ko‘p jihatdan ularning oilaviy muhitda shakllangan tolerantlik xulq-atvoriga bog‘liqdir. «2000-yildan buyon Rossiyaning Elibrary elektron ilmiy axborot tizimida joylashtirilgan va tolerantlik muammosiga bag‘ishlangan 21268 ta tadqiqot ishidan atigi 54 tasi oilada tolerantlikni shakllantirish masalasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritgan»¹. Bu borada jamiyatda tolerant munosabatlarning shakllanishi uchun insonning dastlabki ijtimoiylashuv maskani – oilaning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lsa-da, lekin bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada emasligi bois, mavzuning dolzarbligini yanada orttiradi va alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida davlat xizmatchilarda tolerantlik indeksi va kommunikativ tolerantlik darajalarini aniqlash, ularning shakllanish mexanizmlarini oilaviy ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganishga doir ilmiy izlanishlar ko‘lami kengaymoqda. Bu borada shaxsdagi tolerant munosabatlar, muloqot madaniyati va madaniyatlararo hamkorlik salohiyatining boshlang‘ich ijtimoiy instituti bo‘lgan oilada shakllanishi zarurati ta‘kidlanmoqda. Shu boisdan oilaviy munosabatlardagi tolerantlikning davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatiga ta‘sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish ilmiy-nazariy, amaliy jihatdan ham muhim bo‘lib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi, mazkur muammoni ilmiy-amaliy tadqiq etish uchun zarur asos bo‘la oladi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat fuqarolik xizmatidagi shaxslararo munosabatlarda tolerantlik fazilatlarini ustuvor sifatga aylantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi etib belgilanib, zarur huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi, tizimli islohotlar natijasida «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyil amaliyotga joriy etildi hamda davlat xizmatchilari faoliyatining asosiy mezonini etib belgilandi»². Shu bois ham davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy guruhlar bilan barqaror, madaniyatlararo va samarali muloqot olib borishida fuqarolarga nisbatan ochiqligi va tashabbuskorlik asosida xizmat ko‘rsatish, ya‘ni proaktiv davlat xizmatlarini amalga oshirish salohiyatini kuchaytirishda, oilada shakllangan tolerant xatti-harakatlar, ayniqsa, kommunikativ tolerantlik darajasi muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

¹ <https://elibrary.ru>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son «Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni. – Elektron resurs. – Toshkent: Lex.uz, 2025. – Qo‘llanish rejimi: <https://lex.uz/docs/-7587464>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ–837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ–788-son «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF–5843-son «O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF–5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida», 2025-yil 19-iyundagi PF–95-son «Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2025-yil 14-iyldagi PF–111-son «Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlari, 2019-yil 3-oktabrdagi PQ–4472-son «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 27-iyundagi PQ–3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 820-son «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori, shuningdek, mazkur masalaga oid hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan D.S.Abdullajanova, Z.A.Abidova, F.A.Akramova, M.M.Bafayev, V.M.Karimova, G.O.Karimova, A.E.Ruziyev, Dj.B.Ruzibayev, M.L.Saipova, N.Dj.Sagindikova, E.N.Sattarov, O.E.Hayitov, U.A.Toshnazarova, N.Sh.Umarova va boshqalar tomonidan tibbiyot xodimlarida tolerantlikni shakllantirish, oilaviy psixologik xizmat muammolarini bartaraf etish, globallashuv sharoitida tolerantlikni rivojlantirish, kasbiy sifatlar va professionalizmni mustahkamlash, yoshlar, talabalar va davlat xizmatchilarining psixologik xususiyatlarini o‘rganish masalalari tadqiq etilgan. Ammo, hozirgi kunga qadar oilaviy tolerantlikning davlat fuqarolik xizmatchisi ish faoliyatiga ta’sirining ijtimoiy-psixologik omillari mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida ilmiy-amaliy tadqiq qilinmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan L.I.Ryumshina, Ye.V.Zinchenko, A.A.Chernova, N.L.Okonechnikova, Ye.V.Xoxlova, Ye.V.Poliyevskaya, T.V.Chxikvadze, F.B.Gorbov, V.I.Lebedev,

Ye.A.Mileryan, L.I.Tomashevskaya, M.V.Gritsaenko, Ye.N.Bogdanov, V.E.Chudnovskiy, L.G.Dikaya, A.L.Juravlyov, A.A.Derkach, V.G.Zazikin, Ye.V.Sidorenko, Yu.P.Platonov, I.B.Sheburakov va boshqalar psixologiya fanining qator yo‘nalishlarida tolerantlik muammosiga salbiy ta’sirlarga qarshi bardoshlilik sifatida ilmiy yondashganlar. Jumladan, ular oilaviy munosabatlardagi tolerantlik, emotsional-irodaviy tolerantlik, shaxslararo munosabatlardagi axloqiy tolerantlik, ekstremal omillar ta’sirida fiziologik va psixologik funksiyalarning barqarorligi, og‘ir va maxsus sharoitlarda faoliyat yuritishda psixologik tolerantlik, manipulyativ ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyati, destruktiv va bosimli vaziyatlarda emotsional tolerantlikni ta’minlash masalalari doirasidagi tadqiqotlarda tolerantlik muammosini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorij psixolog olimlaridan S.Akbarzadeh, J.Roose, A.J.Cohen, P.King, H.Oberdiek, M.Verkuypen, K.Yogeeswaran, L.Adelman, S.C.Whiston, B.K.Keller va boshqalar tomonidan tolerantlik fenomeni turli yondashuvlar asosida – falsafiy-ma’naviy qadriyat, ijtimoiy-psixologik jarayon, shaxslararo munosabatlar strategiyasi va guruhlararo munosabatlar kontekstida keng qamrovda tadqiq etilgan. Ushbu mualliflar tomonidan tolerantlikning qabul qilish, toqat qilish, madaniy xilma-xillikka hurmat, inklyuzivlik va adolat tamoyillari bilan bog‘liq jihatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-166-raqamli «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi innovatsion ilmiy-texnik loyihasi doirasida bajarilgan (2024-y.).

Tadqiqotning maqsadi oilaviy munosabatlardagi tolerantlikning davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatiga ta’sirini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchilarining tolerantlik qirralarini aniqlash va ularning oilaviy muhitda shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligini empirik tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining kommunikativ tolerantlik darajasini oilaviy ijtimoiy munosabatlar kontekstida aniqlash va shaxslararo muloqotni boshqarishga ta’sirini empirik aniqlash;

davlat fuqarolik xizmatchilarining oilaviy tolerantlik darajasini real va ideal «Men» munosabatlari kesimida kasbiy lavozim va ijtimoiy maqom bilan bog‘liq holda empirik tadqiq etish;

tolerantlikning shaxsiy, oilaviy va kasbiy omillar ta’sirida shakllanishini aniqlash va uni davlat fuqarolik xizmatida ijtimoiy-psixologik tizim sifatida empirik asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy faoliyati va ularning oilaviy munosabatlar tizimi olingan bo‘lib, tadqiqotda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Maktabgacha va

maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Soliq qo'mitasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligi tizimida davlat fuqarolik xizmatida tuman (shahar) bo'limida faoliyat yuritayotgan 3-darajali boshqaruv kadrlaridan 28 nafar, 4-, 5-, 6-malaka darajasidagi mutaxassislardan 105 nafar, davlat fuqarolik xizmatchilarining oila a'zolari va yaqin qarindoshlaridan 134 nafar hamda fokus-guruh a'zolari sanalgan mahalla raislaridan 15 nafar, jami 282 nafar respondent ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini oilaviy tolerantlikning davlat fuqarolik xizmatchilari kasbiy faoliyatiga ijtimoiy-psixologik ta'sirini tushuntiruvchi qonuniyatlar, mexanizmlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda fokus-guruh vakillari uchun hammualliflikdagi «Tolerantlikni belgilovchi shaxs fazilatlar reytingi» ekspress-so'rovnomasi; G.U.Soldatova, O.A.Kravtsova, O.E.Xuxlayev, L.A.Shaygerovalarning «Tolerantlik indeksi» ekspress-so'rovnomasi; V.V.Boykning «Kommunikativ tolerantlikni diagnostika qilish» metodikasi; V.S.Magun, M.S.Jamkochyan, M.M.Maguralarning «Tolerantlikni o'lchash» so'rovnomasi; T.Leary, G.Leforge va R.Sazeklarning «Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish» metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchligi SPSS-27 dasturi yordamida Mann-Uitnining U-mezoni, Kruskal-Uoillisning H-mezoni, Spermanning ρ -korrelyatsiyasini qo'llash orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmati faoliyatida tolerantlikning etnik, ijtimoiy va shaxsiy qirralari oilaviy muhitda shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishi tufayli, davlat fuqarolik xizmatchilarining xilma-xil ijtimoiy guruhlar bilan konstruktiv munosabatga tayyorligini belgilashda tolerantlik muhim integrativ psixologik sifat ekanligi dalillangan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining kommunikativ tolerantlik darajasi ularning lavozim malakasi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi referent guruhlar, xususan, oila a'zolari bilan shakllangan ijtimoiy-psixologik munosabatlar kontekstida namoyon bo'lishi tufayli, kommunikativ tolerantlik davlat fuqarolik xizmati faoliyatida shaxslararo muloqotni boshqarishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi empirik jihatdan dalillangan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining tolerantlik darajasi ularning kasbiy lavozimi, ijtimoiy maqomi va oila a'zolari bilan shakllangan munosabatlar tizimida hukmronlik va do'stona munosabat o'zgaruvchilari kesimidagi real va ideal «Men» ko'rsatkichlari differensial tarzda namoyon bo'lishi tufayli, oilaviy tolerantlik davlat xizmati faoliyatida kasbiy barkamollik va ijtimoiy moslashuvni ta'minlovchi muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining tolerantlik darajasida kuzatilgan farqlar, xususan, millatlararo, hududiy, madaniy, stereotipik va mavhum ijtimoiy hodisalarga bo'lgan munosabat shakllarining rahbar, mutaxassis va ularning oila a'zolari o'rtasida differensial tarzda namoyon bo'lishi, tolerantlikning faqat shaxsiy fazilat emas, balki oilaviy ijtimoiylashuv modeli, kasbiy rol va lavozimiy

mas'uliyat bilan uzviy bog'liqlikdagi ijtimoiy-psixologik tizim ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatiga oilaviy munosabatlardagi tolerantlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ta'sirini oshirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilgan;

tolerantlikni belgilovchi shaxs fazilatlarini reytingini aniqlovchi ekspress-so'rovnoma ishlab chiqilib, aprobatsiya qilingan;

davlat fuqarolik xizmatchisi va uning oila a'zolari bilan bo'lgan kommunikativ tolerantlik kompetensiyasini baholovchi psixologik komponentlar tizimi modeli taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsion tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda ilmiy jihatdan asoslangan, xalqaro miqyosida sinalgan metodik vositalar, matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llanilgani; tanlab olingan respondentlar hajmi va ularning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar nazariy jihatdan chuqur o'rganilgani, bu jarayonda ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatida tolerantlik fazilatining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tizim sifatida shakllanishiga oid konseptual yondashuv asosida nazariy jihatdan asoslanganligi, bunda tolerantlikning etnik, ijtimoiy va shaxsiy qirralari oilaviy muhit bilan bog'liq holda shakllanishi hamda oilaviy tolerantlikning kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishi empirik tahlillar orqali isbotlanganligi, shuningdek, kommunikativ tolerantlik, real va ideal «Men» obrazlari, kasbiy va ijtimoiy maqom hamda oilaviy munosabatlar tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlanganligi, shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatiga ma'lum darajada hissa qo'shishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan empirik ma'lumotlardan oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistraturada «Ijtimoiy psixologiya», «Kasbiy psixologiya», «Oila psixologiyasi» fanlaridan hamda Boshqaruv samaradorligi agentligi, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida tashkil etiladigan davlat fuqarolik xizmatchilari uchun o'quv kurslarida ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda hamda mavzu doirasida yangi tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oilaviy munosabatlardagi tolerantlikning davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatiga ta'sirini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishi asosida:

davlat fuqarolik xizmati faoliyatida tolerantlikning etnik, ijtimoiy va shaxsiy qirralari oilaviy muhitda shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishi tufayli, davlat fuqarolik xizmatchilarining xilma-xil ijtimoiy guruhlar bilan konstruktiv munosabatga tayyorligini belgilashda tolerantlik muhim integrativ psixologik sifat ekanligi dalillangan xulosalar

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-son ma’lumotnomasi). Natijada davlat fuqarolik xizmatchilarining tolerantlik qirralari aniqlangan va ularning oilaviy muhitda shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligini o‘rganish imkoniyati yaratilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining kommunikativ tolerantlik darajasi ularning lavozim malakasi va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi referent guruhlar, xususan, oila a’zolari bilan shakllangan ijtimoiy-psixologik munosabatlar kontekstida namoyon bo‘lishi tufayli, kommunikativ tolerantlik davlat fuqarolik xizmati faoliyatida shaxslararo muloqotni boshqarishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi empirik jihatdan dalillangan ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-a-son ma’lumotnomasi). Natijada davlat fuqarolik xizmatchilarining kommunikativ tolerantlik darajasi oilaviy ijtimoiy munosabatlar kontekstida aniqlangan va uning shaxslararo muloqotni boshqarishga ta’sirini tadqiq qilish imkoni asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining tolerantlik darajasi ularning kasbiy lavozimi, ijtimoiy maqomi va oila a’zolari bilan shakllangan munosabatlar tizimida hukmronlik va do‘stona munosabat oqintlari kesimidagi real va ideal «Men» ko‘rsatkichlari differensial tarzda namoyon bo‘lishi tufayli, oilaviy tolerantlik davlat xizmati faoliyatida kasbiy barkamollik va ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi muhim ijtimoiy-psixologik xususiyat ekanligi asoslangan ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-a-son ma’lumotnomasi). Natijada davlat fuqarolik xizmatchilarining oilaviy tolerantlik darajasi real va ideal «Men» munosabatlari kesimida o‘rganilgan hamda ko‘rsatkichlarning kasbiy lavozim va ijtimoiy maqom bilan aloqadorligini o‘rganish imkoniyati yaratilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarining tolerantlik darajasida kuzatilgan farqlar, xususan, millatlararo, hududiy, madaniy, stereotipik va mavhum ijtimoiy hodisalarga bo‘lgan munosabat shakllarining rahbar, mutaxassis va ularning oila a’zolari o‘rtasida differensial tarzda namoyon bo‘lishi, tolerantlikning faqat shaxsiy fazilat emas, balki oilaviy ijtimoiylashuv modeli, kasbiy rol va lavozimiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liqlikdagi ijtimoiy-psixologik tizim ekanligi isbotlangan ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM–357-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi

PM–357-a-son ma'lumotnomasi). Natijada tolerantlikning shaxsiy, oilaviy va kasbiy omillar ta'sirida shakllanish ko'lami aniqlangan, uni davlat fuqarolik xizmati faoliyatida muhim ijtimoiy-psixologik tizim ekanligi asoslangan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqotning natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O'zbekistonda Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning respublikaning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi mufassal bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Tolerantlikning ijtimoiy-psixologik asoslari va uning oilaviy munosabatlarda shakllanish xususiyatlari**» deb nomlanib, unda tolerantlik tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni va tuzilmasi, Sharq mutafakkirlarining hamda zamonaviy ilmiy qarashlarning tolerantlik g'oyalari bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, oilaviy munosabatlarda tolerantlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar har tomonlama tahlil qilingan. Bobning 1-paragrafida tolerantlik – ijtimoiy barqarorlik, insoniylikka asoslangan muloqot madaniyati va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlovchi ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida talqin etiladi. Bu tushuncha shaxsning o'zga fikrlar, g'oyalar va hayot tarzi mavjudligiga sabrli, murosali va huquqiy-madaniy toqat bilan yondashuvini anglatadi.

Bobning 2-paragrafida tolerantlik tushunchasining tarixiy-madaniy ildizlari, xususan, Sharq mutafakkirlari qarashlari va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unligi tahlil qilingan. Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Abu Bakr Kalobodiy va Imom G'azzoliy asarlari asosida oilaviy tolerantlik qadriyatlarining ma'naviy, axloqiy va psixologik asoslari bayon etilgan. Xususan, «Al-Jome' as-Sahih» asaridagi hadislar orqali oilaviy birdamlik, diniy bag'rikenglik, kechirimlilik, mehr, muvozanat va adolatga asoslangan munosabatlar – davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy madaniyati shakllanishidagi ichki psixologik tayanch sifatida namoyon bo'lishi asoslangan.

Bobning 3-paragrafida oilaviy munosabatlarda tolerantlikni shakllantiruvchi

ijtimoiy-psixologik omillar tahlil etilgan. Oilaviy emotsional qo‘llab-quvvatlash, psixologik barqarorlik, stressga bardoshlik va o‘ziga ishonch tolerantlik xulq-atvori shakllanishining asosiy shartlari sifatida ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi «**Davlat fuqarolik xizmatchisi shaxsida tolerantlikni shakllantiruvchi oilaviy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni empirik tadqiq etish**» deb nomlanib, unda tanlangan metodologiya asosida fokus-guruh vakillari, davlat xizmatchilari hamda ularning oila a‘zolari (yaqin qarindoshlari) ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot jarayonida oila muhitidagi tolerantlik darajasi maxsus indikativ shkala va indekslar asosida baholanib, tolerantlikni belgilovchi shaxsiy fazilatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil berilgan.

Bobning 1-paragrafida, davlat fuqarolik xizmati tushunchasi yoritilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida»gi Qonunida u davlat xizmatining bir turi sifatida belgilangan va O‘zbekiston fuqarolarining davlat fuqarolik xizmatidagi lavozimlar orqali davlat organlari vakolatlarini amalga oshirishga qaratilgan haq to‘lanadigan kasbiy faoliyati sifatida izohlangan.

Bobning 2-paragrafida oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, undagi psixologik muhit tolerantlikning shakllanishi va barqarorlashuvida hal qiluvchi omil sifatida talqin etilgani. Unda «Tolerantlik indeksi» nomli ekspress-so‘rovnoma orqali 267 nafar davlat fuqarolik xizmatchilari hamda oila a‘zolari (respondentlar) orasida tolerantlikning etnik, ijtimoiy va shaxsiy qirralari bo‘yicha diagnostika qilingan, 1-jadvalda natijalar berilgan.

1-jadval.

Davlat fuqarolik xizmatchilari va oila a‘zolari orasida tolerantlik subshkalalari o‘rtacha ballari, Kruskal–Uoillisning H-mezoniga ko‘ra, n=267

T/r	Tolerantlik subshkalasi	O‘rtacha «K»			H	p
		DFXdagi 3-darajali boshqaruv kadrlari; n=28	DFXdagi 4-, 5-, 6-darajali mutaxassislar; n=105	DFXdagi-larining oila a‘zolari; n=134		
1.	Etnik tolerantlik	3,00	2,83	2,83	0,67	0,7158
2.	Ijtimoiy tolerantlik	8,96	2,47	0,00	247,52	0,0000
3.	Tolerantlik shaxs qirralari sifatida	11,25	1,98	0,00	249,03	0,0000


Izoh: $p < 0,001$.

1-jadvalda etnik tolerantlik subshkalasi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farq aniqlanmaganligi kuzatildi ($H=0,67$; $p=0,7158$). Bu holat DFX ning har xil lavozim darajalarida faoliyat yurituvchi xodimlar va ularning oilaviy a‘zolari etnik xilma-xillik masalasiga nisbatan umumiy ehtiyotkor, biroq neytral munosabatda ekanligini anglatadi. «Etnik tolerantlik»ning bunday bir xillikda namoyon bo‘lishi ijtimoiy me‘yorlar va madaniy stereotiplarning barqaror ta‘siri

bilan izohlanadi.

«Ijtimoiy tolerantlik» ($H=247,52$; $p=0,0000$) va «tolerantlikning shaxs qirralari sifatida» namoyon bo'lishi ($H=249,03$; $p=0,0000$) subshkalari bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan yuqori darajadagi ishonchli farqlar kuzatildi. Bu esa oilaviy muhitda shakllangan tolerantlik darajasining shaxsning professional faoliyatiga bevosita ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Xususan, yuqori ijtimoiy tolerantlikka ega bo'lgan boshqaruv kadrlarining oila a'zolarida ham nisbatan ijtimoiy moslashuvchanlik, xilma-xil ijtimoiy guruhlar bilan konstruktiv munosabatga tayyorlik aks etgan. Bu holat oilada shakllangan ijtimoiy-psixologik qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatida o'z ifodasini topganini anglatadi. Tadqiqotda tolerantlikning oilaviy kontekstdagi qiyofasi shaxsning kasbiy-ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori, kommunikatsion yondashuvi va mehnat samaradorligi bilan uzviy bog'liqligi ko'rinadi. Bu natija esa tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan har qanday psixologik intervensiya oilaviy omillarni inobatga olgan holda olib borilishi zarurligini ko'rsatadi.

Bobning 3-paragrafi mazmunida tolerantlikni belgilovchi shaxsiy fazilatlarni aniqlash maqsadida yarim standartlashtirilgan intervyuga asoslangan fokus-guruh usuli natijalari bayon qilingan. Andijon viloyatining turli tumanlarida faoliyat yuritayotgan, umumiy mahalla raisligi bo'yicha ish staji 5 yildan – 17 yilgacha bo'lgan, o'rtacha yoshi 48,7 yoshni tashkil etuvchi 15 nafar mahalla fuqarolar yig'ini raislaridan iborat maxsus fokus-guruh shakllantirilgan. Ushbu guruhni munozara orqali ishtirokchilarning tolerantlik haqidagi «subyektiv qarashlari» tahlil qilingan hamda olingan natijalar tolerantlikni belgilovchi shaxs fazilatlarini aniqlashda muhim empirik asos bo'lib xizmat qilgan, 1-rasmga qarang.



1-rasm. Fokus-guruh ishtirokchilarining tolerantlikni belgilovchi shaxsiy fazilatlarni tanlash chastotasi reytingi, n=15.

Fokus-guruh a'zolarining katta qismi (9 nafari) dunyoqarashida universal yondashuv, global masalalarga befarq bo'lmagan faol fuqarolik pozitsiyasini afzal ko'rish aniqlandi, ushbu fazilat umumiy natijaning 60 foizini tashkil etadi. Demak, «Global fikrlash» fazilati tolerantlikni hududiy chegaralardan yuksakroq darajada

tushunishga xizmat qiladi.

Sakkiz nafar ishtirokchi (53,3%) tomonidan tolerantlikni belgilovchi muhim fazilat sifatida «empatiya» qayd etilgan. Empatiya – boshqalar his-tuyg‘ularini anglab, ularga hamdardlik bildiruvchi ichki ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik ekanini tasdiqlaydi. Empatik shaxslar boshqalarning ruhiy holatiga befarq bo‘lmaydi, bu esa ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik, o‘zaro hurmat va tenglik asosida muloqot o‘rnatilishiga xizmat qiladi.

Yana 8 nafar ishtirokchi (53,3%) «ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuv»ni tolerantlikdagi muhim shaxsiy komponent deb hisoblagani – shaxs turli ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda o‘z xatti-harakatlarini uyg‘unlashtira olishini va konstruktiv muloqotni saqlay bilishini anglatadi. Bunday yondashuv jamiyatda tolerantlikni rivojlantirish uchun zarur psixologik manba bo‘la oladi.

«Dunyoqarash xilma-xilligi»ni 8 ishtirokchi (53,3%) tanlagan bo‘lib, bu shaxslararo farqlarni qadrlash orqali tolerantlikni anglash ehtiyojining yuqoriligini bildiradi. Bunday fazilatga ega insonlar turli madaniy va ijtimoiy fikrlar xilma-xilligiga ochiq bo‘lib, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotga intiladilar.

«Adolatga intilish» 8 nafar respondent (53,3%) tomonidan tolerantlikning asosiy fazilati sifatida qayd etilgan. Bu fazilat ijtimoiy munosabatlarda teng imkoniyat, huquqiy muvozanat va prinsipial yondashuvlarga ustuvor ahamiyat berishini ko‘rsatadi. Adolatga intilgan insonlar nizoli vaziyatlarda xolis fikr yuritib, tolerantlikni amaliy darajada namoyon etadi. Shuningdek, 46,7 % ishtirokchi «millatlararo totuvlik», «konfliktni bartaraf qilish» va «turli shaxslar bilan muloqot» qobiliyatini belgilagani, tolerantlikni faqat shaxsiy xususiyat emas, balki ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlovchi omil sifatida qabul qilinishini anglatadi.

Dissertatsiya ishining «**Davlat fuqarolik xizmatchilarida oilaviy tolerantlikning ifodalanishi va uni belgilovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning empirik tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida davlat fuqarolik xizmatchilarining oilaviy tolerantlik darajasini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar empirik jihatdan aniqlangan, kommunikativ tolerantlik darajasiga oilaviy va kasbiy tolerantlik o‘zaro aloqadorligining shaxslararo munosabatlar kontekstida psixologik tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqotda V.V.Boykning «Kommunikativ tolerantlikni diagnostika qilish» metodikasi qo‘llanilgan, natijalar 2-jadvalda berilgan.

2-jadval.

Davlat fuqarolik xizmatchilari va oila a‘zolarida V.V.Boykning «Kommunikativ tolerantlikni diagnostika qilish» metodikasi natijalari, Kruskal–Uoillisning H-mezoniga ko‘ra, n=267

T/r	Shkalalar jamlanmasi	O‘rtacha «K»			H	P
		DFXdagi 3-darajali boshqaruv kadrlari; n=28	DFXdagi 4-, 5-, 6-darajali mutaxassislar; n=105	DFXdagi-larining oila a‘zolari; n=134		
1.	Kommunikativ tolerantlik	72,82	84,37	70,96	266,00	0,0000***


Izoh: $p < 0,001$.

Davlat fuqarolik xizmatchilari va oila a'zolari o'rtasida kommunikativ tolerantlik darajasi natijalarida sezilarli statistik farq mavjud ($H=266,00$; $p=0,0000$)ligini ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida, respondentlarning lavozim darajasi ularning kommunikativ tolerantlik darajasiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Mutaxassislarning o'rtacha ballari (84,37) eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etganligi ular orasida kommunikativ tolerantlik nisbatan sust ekanini bildiradi. Davlat fuqarolik xizmatidagi boshqaruv kadrlarining ko'rsatkichi 72,82 ballni tashkil etgan bo'lsa, oila a'zolaridagi daraja yanada past, ya'ni 70,96 ball atrofida bo'lgan. Ushbu natijalar rahbarlik va mas'uliyat darajasi ortishi bilan kommunikativ tolerantlikning murakkab va differensial xususiyat kasb etishini ko'rsatadi. Mazkur farqlar psixologik xizmatlar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda individual yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Oilaviy munosabatlarda bu holat shaxsning o'z fikr va qadriyatlarini universal haqiqat sifatida qabul qilishi bilan izohlanadi. Bu esa o'z navbatida oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishni murakkablashtiradi, bu turdagi shaxslar ijtimoiy muomala jarayonida boshqa odamlarning harakatlarini baholashda qat'iy, konservativ mezonlarga tayanadi, bu esa individual farqliliklarga nisbatan past tolerantlikni yuzaga chiqaradi.

2-rasmda davlat fuqarolik xizmatchilari orasida referent shaxs sifatida oila a'zolarining yetakchi o'rinda turishi (60,95%) kuzatildi. Bu holat xizmatchilarning kasbiy faoliyatida ham, shaxsiy qaror qabul qilishida ham oila a'zolarining ijtimoiy-psixologik ta'siri ustunlik qilishini anglatadi. Ayniqsa, ijtimoiy-psixologik sifat va shaxslilik xususiyatining shakllanishida oila a'zolari bilan munosabatlar, ular bergan hissiy qo'llab-quvvatlov, qadriyatlar va norma-talablari tolerantlikning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, oilaviy psixosotsial muhitda shakllangan tolerantlik xatti-harakatlari davlat fuqarolik xizmatchisining ish joyidagi muloqot va munosabatlarida, ya'ni proaktiv davlat xizmatlarini amalga oshirishda muhim psixologik mexanizm rolini bajaradi.



2-rasm. Mutaxassislarning proaktiv davlat xizmatlarini amalga oshirish jarayoniga referent shaxs (guruh)lar ta'siri ko'rsatkichi, n=105

Yaqin qarindoshlar guruhi (23,81%) esa ko'pincha urf-odat, axloqiy talqin va

ijtimoiy qarashlar orqali xizmatchining tolerantlik qoidalari bo'yicha qarorlariga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning mavjudligi oilaviy ijtimoiy maydonning kengligini, shuningdek, ijtimoiy nazorat va me'yorlarning barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, davlat fuqarolik xizmatchilari singari ijtimoiy jihatdan faol guruh vakillarining proaktiv davlat xizmatlarini amalga oshirish faoliyatida ijtimoiy baholash va shaxsiy obro' tushunchalari muhim o'rin tutar ekan, bu turdagi referent guruhlarning tolerantlikka oid qarashlari faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hamkasblar, rahbarlar va do'stlar esa xodimlar faoliyatida tashqi ijtimoiy ta'sir manbai sifatida rol o'ynaydi. Biroq 2-rasmdan ko'rinadiki, ushbu guruhning referentlik salohiyati oila va qarindoshlarga nisbatan ancha past. Bu holat davlat xizmatchisining kasbiy faoliyatida tolerantlik mezonlarini shakllantirishda asosiy ijtimoiy-psixologik manba oilaviy muhit ekanini isbotlaydi.

Referent guruhlar shaxs kommunikativ tolerantligining shakllanishida markaziy o'rinni egallaydi, ammo ularning ta'siri davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy malaka darajasi va ijtimoiy-madaniy tajribasiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, oilaviy va kasbiy kontekstdagi shaxslararo munosabatlar mazkur holatning ichki determinantlarini aniqlashda qo'shimcha diagnostik manba sifatida qarash mumkin.

Tadqiqotda T.Leary, G.LeForge, R.Sazeklarning «Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish» metodikasining L.N.Sobchik tomonidan modifikatsiyalashtirilgan variantidan foydalanildi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy faoliyatida metodikadagi «avtoritarlik» (I oktant), «bo'ysunuvchanlik» (V oktant), «do'stona munosabat» (VII oktant) hamda «altruistik» (VIII oktant) kabi interpersonal yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Metodika aynan ushbu sektorlar kesimida shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarini aniqlash, xizmatchining mehnatdagi muloqot sifati, rahbarlik yoki ijroga moyilligi, jamoaga va (yoki) murojaatchilarga bo'lgan munosabati, tanqidni qabul qilish uslubini baholash imkonini beradi.

Davlat fuqarolik xizmati boshqaruv kadrlari real «Men» holatining I oktant (Hukmronlik – liderlik) bo'yicha 12,00 ball bilan baholangan natijasi ushbu guruh vakillarida yetakchilik qobiliyatining faol namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Biroq bu ko'rsatkich me'yordan yuqoriligi sababli tanqidga toqatsizlik, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholash, fikrlarni buyruq ohangida bayon etish va boshqalar ustidan nazoratga kuchli ehtiyoj kabi salbiy qirralarning mavjudligiga ham ishora qiladi. Ushbu holat rahbarlik salohiyatining kuchliligini bildiradi, ammo bu salohiyat jamoadagi tenglik, ochiq muloqot va hamkorlik tamoyillariga zid bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday shaxslarda muloqot uslubini ijtimoiy maqbullik mezonlariga moslashtirish, konstruktiv tanqidga ochiqlik va o'zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ideal «Men»da yuqori ball (11,00) mantiqiy holat sanaladi. Bu oktant rahbarlik qobiliyati, tashabbuskorlik, qaror qabul qilishda qat'iylik va jamoani boshqarish salohiyatini anglatadi. Davlat boshqaruvidagi rahbar kadrlar uchun


liderlik sifatlari eng muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu oktant “ideal Men”da yuqori ball bilan namoyon bo‘lishi – ijtimoiy psixologik jihatdan to‘g‘ridir.

VIII oktant – «Mas’uliyatlilik – tolerantlik» shkalasi bo‘yicha 10,00 balli ko‘rsatkich qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich respondentlarning boshqalarga yordam berishga tayyorligini, yuqori ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini va muomalada himmatlilik, sabr-toqat kabi xislatlarni namoyon etishga moyilligini anglatadi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarda qat’iy gumanistik tamoyillarga sodiqlik, ijtimoiy ehtiyojlar va ko‘makka ehtiyojmandlarni anglash qobiliyati bilan bog‘liq.

Bu esa altruistik majburiyatlarni zimmasiga olishga moyillik, o‘z ehtiyojlarini ikkinchi o‘ringa surish kabi ichki o‘zini inkor etish tendensiyalari mavjudligini namoyon etadi.


